BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-BAHOLASH

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

“BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-BAHOLASH”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT: CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.U.Sariyev. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida test topshiriqlari ustida ishlash / / “Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi” mavzusidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Jizzax, 2023.
2. Kuranov S.D. Ona tili (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. I qism). – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “4 K” MODELINI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yangi darsliklarda berilgan matnlar va masalalarni muhokama qilish va munozara qilish jarayonida “4 K” modelini qo‘llash texnologiyasi keltirilgan. Chunki bugungi kunda munozarali ta’lim o‘quv faoliyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Darslik, masala, matn, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash.

Abstract. This article presents the technology for using the “4K” model in the process of discussing and discussing texts and exercises given in new textbooks for primary school students. Since today discussion learning is one of the most important forms of educational activity, it helps to increase student initiative and develop critical thinking.

Key words. textbook, exercise, text, primary school, critical thinking.

Аннотация. В данной статье представлена технология использования модели «4К» в процессе обсуждения текстов и задач, приведенных в новых учебниках для учащихся начальных классов. Поскольку сегодня дискуссионное обучение является одной из важнейших форм учебной деятельности, оно способствует повышению инициативности учащихся и развитию критического мышления.

Ключевые слова. Учебник, задача, текст, начальное образование, критическое мышление

Har qanday ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun u ta’lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta’lim oluvchilarga xos bo‘lib, ayniqsa, kichik maktab yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ yondashuvlar asosida turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlash murakkab vazifa sanaladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni har tomonlama to‘g‘ri tashkil etish, samaradorlikka erishish hamda keng ko‘lamli sifatli axborotlardan foydalanishga bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarga ta’lim berish, ularning bilimlarini oshirishda zamon bilan hamnafas ravishda mustaqil va ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish, o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Odamlar o‘qishdan to‘xtashlari bilan fikrlashdan to‘xtaydilar”, degan edi fransuz faylasufi Deni Didro. Ko‘pgina olimlar, psixologlar va o‘qituvchilar ko‘p yillardan buyon o‘qish jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishi ustida ish olib borganlar. Kichik maktab o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi V.P. Ostrogorskiy, N.A. Rubakina, M.A. Ribnikova, L.S. Vigotskiy, L.A. Mosunova, A.G. Asmolov, L.Yu. Nevuyeva, A.A. Zubchenko, M.P. Voyushina, V.P. Sinenko, N.N. Svetlovskaya kabi olimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik ular o‘qish jarayonini qanday tashkil etish kerakligini, o‘quvchilar matn ustida ishlash shakllarini aniqladilar va tavsifladilar.

Darslarda didaktik va zamonaviy texnik vositalardan doimiy foydalanish, ta'limiy o'yinlar va vaziyatlarni joriy etish, xalqaro darajadagi va turli murakkablikdagi faollashtiruvchi test topshiriqlaridan, innovatsion texnologiya va usullaridan keng foydalanish o'quvchilarni barcha fanlarni tushunish, tahlil qilish, bilimlarni qiziqib amaliyotga qo'llashlariga olib keladi.

4 "K" modelining mazmuni quyidagi k**o'**nikmalarni shakllantirishni **o'**z ichiga oladi. Uning tarkibida 4 ta "K" harfi bilan boshlanadigan tushunchalar **o'**z aksini topgan.

1. **Kritik (tanqidiy) fikrlash** (critical thinking) ko'nikmasi;
2. **Kreativlik** (creative thinking) ko'nikmasi;
3. **Kommunikatsiya** (communication) ko'nikmasi;
4. **Kooperatsiya yoki kollaboratsiya** (coordinating with others) ko'nikmalari.

"4K" ko'nikmalar quyidagi mazmunga ega.

Kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking) ko'nikmasi:

• **tahlil** - topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning ma'lum ketma-ketlikka ega bo'lgan tizimli algoritmlarini yaratish qobiliyati;

• baholash – olinadigan ma'lumotlarining sifatli qabul qilish qobiliyati;

• tushuntirish - o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil fikr bildirish;

• maqsadlarni belgilash – erishishga yo'naltirilgan maqsadni to'g'ri shakllantirish, mavjud ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

• o'zini boshqara bilish - o'z-o'zini tekshirish, xulosalar asosida tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);

• modellashtirish - amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhumdan ma'lum model bilan almashtirish qobiliyati;

• o'rganilayotgan predmetga turli nuqtali nazardan qarash amaliyoti;

• kuzatish asosida o'lchovlarni rejalashtirish va amalda qo'llash amaliyoti;

• muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

• dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

• strategik fikrlash vazifalarini o'z ichiga oladi.

Kreativlik (creative thinking) ko'nikmasi:

• qiziquvchanlik - tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;

• tasavvur - ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

• optimallashtirish - maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

• g'oyalarni rivojlantirish - g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi malumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish ko'nikmasi

• muloqotda cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.

• muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

• muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

• muloqot jarayonidagi turli vaziyatlarni tushunish va ishonch darajasini oshirish;

• boshqalarning fikrini tinglashni o'rganish;

• o'z ijobiy obrazining shakllantirishga erishish;

• o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalay olish amaliyoti;

• taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;

• o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;

• katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi

• umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun

birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

• ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

• o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

• o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

• mustaqillik tashabbuskorlikni namoyish qilishda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf fanlarida qo‘llsh mumkin bo‘lgan quyidagi metodlar o‘quvchilarda aynan “4 K” modeli asosida turli ko‘nikmalarni shakllantirishga erishishda yordam beradi.

1-bosqich. (lug‘at ustida ishlash) Matndan narsa va hodisalarning belgisini bildirib, **qanday?, qanaqa?** so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlarni topish vazifasi beriladi. Masalan:

Bugun havo yoqimli. Tabiat go‘zal manzara kasb etmoqda. Sinfda barchaning kayfiyati a’lo. Olisdan ko‘rinayotgan mevali va manzarali daraxtlar betakror tusda ko‘rinish bermoqda. Yomg‘ir hidi anqib turgan salqin havodan to‘yib nafas olging keladi. Kuzning bunday tarovati hech kimni befarq qoldirmaydi.

Dalalardagi hosil yig‘im-terimi qish mavsumining boshlanishidan darak berayotgandek. Bu yilgi mehnatning natijasi barakali bo‘libdi.

2-bosqich. Keyingi jarayonda so‘zlar kommunikativ ko‘nikmalari yaxshi shakllanmagan o‘quvchilarga tarqatiladi. Har bir o‘quvchi qo‘lidagi qog‘ozda mavjud bo‘lgan so‘zni yashirib, uning zid ma’nodoshini boshqalarga aytishga harakat qiladi. “4 K” modelining kommunikativlik va kreativlik jarayonlari amalga oshiriladi. O‘quvchilar qog‘ozda qanday so‘z yashiringanini topishi kerak.

mavjud so‘z	**ishtirokchining so‘zi** (antonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)	**o‘quvchilar javobi** (sinonim)
yoqimli	**yoqimsiz**	chiroyli	muloyim	yoqimli
go‘zal	**xunuk**	ko‘rkam	xushro‘y	go‘zal
a’lo	**yomon**	zo‘r	ajoyib	a’lo
mevali	**mevasiz**	mevali	sermeva	hosildor
manzarali	**ko‘rimsiz**	maftunkor	ko‘rimli	chiroyli
betakror	**oddiy**	takroriy	odatiy	betakror
salqin	**iliq**	sovuq	salqin	yoqimli
befarq	**e’tiborli**	e’tiborsiz	loqayd	befarq
barakali	**barakasiz**	serhosil	mo‘l	barakali

3-bosqich. Qo‘lida qog‘oz bor o‘quvchi avval qo‘lidagi so‘z topilgan yoki topilmaganini aytadi. So‘ngra qog‘ozni boshqalaga ko‘rsatadi.

4-bosqich. Topilgan so‘zlar muhokama qilinadi va matndagi so‘z o‘rniga qo‘yib ko‘riladi. **Masalan:**

Bugun havo (yoqimli) (chiroyli), (muloyim). Shu so‘zlar to‘g‘ri keladimi?

O‘quvchilar **“ha”** yoki **“yo‘q”,** degan javobni beradilar. Nima uchun **“ha”,** nima uchun **“yo‘q”.** Shunda “4K” modelining tanqidiy fikrlash va birgalikda hamkor bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikma va kompetensiyalar sifatida (tayanch va fanga oid kompetensiyalar) kommunikativ ko‘nikma, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasi, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik ko‘nikmalarining rivojlanishida “4K” modelini darslarda qo ‘llash juda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limda ona tili, o‘qish, matematika, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda yuqorida keltirilgan

ko‘rsatmalarga amal qilish hamda ilg‘or tajribalarga murojaat qilish sezilarli ijobiy natijalarni berishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘kitish texnologiyalari. – T., 2001 y.
2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktorlik diss… avtoreferati. – T., 2003 y.
3. Azizova G.G. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. Ped.fanl. bo‘y. fal. dok. diss. avtoref. – T. – 2019 y .
4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 y.
5. Aslanova N.X. Boshlang‘ich sinf o ‘quvchilarida matnni o ‘qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari. P. f. b. f. doktorlik. diss… avtoreferati. – T., 2023 y.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна,
Доцент, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.

Аннотация. В статье рассмотрены виды и возможности интеграционных технологий в активизации и углублении восприятия литературного произведения на уроках чтения в начальной школе.

Ключевые слова. Интегрированный курс обучения; интеграция литературы, музыки и живописи; изобразительное искусство и музыка.

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida adabiy asarni idrok etishni kuchaytirish va chuqurlashtirishda inteqratsiya texnologiyalarining turlari va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Integratsiyalashgan o‘quv kursi, adabiyot, musiqa va rasm; tasviriy san’at va musiqa integratsiyasi.

Abstract. The article discusses the typs and possibilities of integration technologies in enhancing and deepening the perception of a literary work in reading lessons in elementary school.

Key words. integrated course of study; integration of literature, music and painting; fine arts and music.

В настоящее время проблема интеграции обучения и воспитания в начальной школе важна и современна. Её актуальность обусловлена новыми социальными запросами, которые сейчас предъявляют школе, и изменениями в сфере науки и производства. Согласно концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года, планируется внедрение современных интеграционных проектов в сферу народного образования.

Современная образовательная система направлена на формирование образованной, интеллектуально развитой личности с целостным представлением картины мира, с пониманием глубины связей явлений и процессов, представляющих данную картину. Но самостоятельность учебных предметов, их слабая связь друг с другом создают большие трудности в формировании у учащихся целостной картины мира, препятствуют органичному восприятию культуры.

Таким образом, введение интеграции предметов в систему образования позволяет решить задачи, стоящие сейчас перед школой и обществом в целом.

Анализ состояния проблемы показывает, что явление «интеграция», хотя и имеет давние традиции, преимущественно развивается на основе внутрипредметных и

Бабаева Шоира Баймурадовна. PIRLS – ОДИН ИЗ СОВРЕМЕННЫХ НАПРАВЛЕНИЙ РАЗВИТИЯ ГРАМОТНОСТИ И РЕЧИ ШКОЛЬНИКА 100
Aslanova Nargiza Xakimovna. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH ASOSIDA KREATIVLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 102
Bozorova Zulayxo Qo‘chqorovna. TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR,ULARNING AFZALLIKLARI VA ERISHILADIGAN NATIJALAR. 104
Алимова Анастасия Николаевна. РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ ЧЕТВЕРТОГО КЛАССА ВО ВРЕМЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЗАДАНИЙ TIMSS 106
Burxonov S.A. Baholash jarayoniga baho 109
U.G‘.Sobirov, A.H.Karimova. O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO DASTURLAR 111
Joldasova Go‘zzal Aybekovna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA TIMSS XALQARO DASTURINING AHAMIYATI 114
Jumayeva Hanifa G‘aforovna. XALQARO TATQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH 117
Alijon Ro‘ziqulovich Hamroyev. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI 119
SH.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI 121
M.H.Nosirova, S.S.Elubayeva, M.I.Toshpulatova. BO‘YICHA XALQARO TADQIQOTLARDA ISHTIROK ETISH ORQALI MAKTAB O‘QUVCHILARINI BILIMINI BAHOLASH 123
G.Ro‘zmatova, S. Meyliyeva, F.Zokirov. TA’LIM TIZIMIDAGI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI 127
Qo'ziboyeva N., Ismoilova N., M.I.Toshpulatova. TA’LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI JORIY QILISH 130
M.Muxlisa, F.Parpiyeva, F.Zokirov. BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI 133
M.U.Axmadaliyev. BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIMDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ISLOHOTLARNI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA 137
N.Aminjanova, I.Mamatqulova, O.Rahmatullayev. TIMSS XALARO BAHOLASH DASTURI DOIRASIGA OID TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR 140
Sh.B.Qarshiboyeva, M.S. Suyunova, M.I.Toshpulatova. TIMSS TOPSHIRIQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING OLGAN BILIMLARINI BAHOLASH 142
К.Давыдюк, Ю.Тажиева. А.Низамитдинова, Эсбосинов Р. ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ 144
M.Ortiqova, M.Sobirova, M.I.Toshpulatova. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKADAN QO‘LLANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI TURLARI 147

4–SEKTOR: BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI 152

Shadmankulova Dilyarom Xalikovna. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA “4 K” MODELI ASOSIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 152
Aslanova Nozima Xakimovna. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “4 K” MODELINI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI 154
Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ 157
Tilavova Matlab Muxamedovna, Otarbaev Ajiniyaz Azatovich. “KOMPETENTLIK” VA “KOMPETENSIYA” TUSHUNCHALARINING LINGVOPEDAGOGIK TALQINI 159
Sariyev Sharafjon Urozbayevich. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI 4 “K” MODELI ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI 161
Хакимова Наргиза Супхоновна. ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ 163
Omonova Dildora Nekmurod qizi, Ro‘zimboyeva Ozoda. 4K MODELI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH 165